

O'ZBEK TILIMIZ DAVLAT TIMSOLI VA BIZNING MULKIMIZDIR.

Namangan viloyati tarixi va Madaniyati davlat muzeyi bosh mutahasisi:

Sh. Ahmadjanova

Ona tili – millatning ruhidir. Til — davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi. Bundan 31 yil muqaddam o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Bu o'z davrida tom ma'noda olamshumul voqea bo'lgan edi. Chunki, Beruniy, Ibn Sino, Al Xorazmiy, Al Farg'oniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo singari buyuk siymolarni yetishtirgan xalq tili yo'qolish arafasiga kelib qolgan edi. Mustaqillikka ilk qadamlar tashlanayotgan davrdayoq prezidentimiz tomonidan o'zbek tiliga davlat maqomi berish masalasi kun tartibiga qo'yilib, bu ish amalga oshirilgan edi. Ona tilimiz – o'zbek tiliga 1989 yil 21 oktabrda davlat tili maqomi berildi. Bu mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz hayotidagi unutilmas, tarixiy voqeaqa aylandi. Agar o'shanda til to'g'risida qonun qabul qilinmaganda edi, o'zbek tili ham tarix saxifalaridan joy olgan bo'larmidi?!. Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lgan edi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilining xalqaro miqyosda obro'si oshdi. “Davlat tili haqida”gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug'atlar, darslik va o'quv qo'llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, sakson mingdan ziyod so'z va so'z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo'llaniladigan so'zlarni o'z ichiga olgan besh jildlik “O'zbek tilining izohli lug'ati” bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridandir. Aslida har qanday istiqlol til ozodligidan boshlanadi. O'z tilida davlatni idora qilish, erkin muloqot qilish, kuylash va ijod qilish

huquqiga ega bo'lmagan hech bir xalq istiqloлга chiqdim deya olmaydi. Shu ma'noda ona tilimizga davlat tili maqomi berilgan kunni istiqloл va mustaqillikka erishish yo'lida qo'yilgan eng dadil va eng sharaflı qadam deyishga haqlimiz.

Til nafaqat muomala vositasi, balki xalqning ma'naviyati, madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixi, eng muhimi mustaqillik belgisidir. Dunyoda 7 mingdan ortiq tillar muomalada bo'lib, dunyo aholisining 90 foizi 70 ta tilda so'zlashadi. 200 ta til davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega. Bugungi kunda dunyoning 50 milliondan ortiq aholisi o'zbek tilida so'zlashib, bu tilda so'zlashuvchilar soni bo'yicha dunyoda 27-o'rinda turadi. 6 ta (o'zbek, turk, qozoq, qirg'iz, ozarbayjon, turkman, uyg'ur) barqaror turkiy tillardan biri hisoblanadi. O'zbek tili dunyoning 60 dan ortiq universitetlarida, 200 dan ortiq maktablarida o'qitiladi.

Xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir.

Istiqloл yillarida ona tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi.

Bugun O'zbekistonimiz "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va nufuzi tobora oshib bormoqda.

Milliy tilimizga, ona tilimizga bo'lgan e'tibor, nafaqat bugungi kunda, balki tarixning barcha davrlarida ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Shu o'rinda bobolarimiz aytgan quyidagi purma'no fikrlarni eslaylik: "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadur gon olinayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak millat ruhini yo'qotmakdur" (M.Behbudiy).

E'tibor beryapsizmi, milliy tilni yo'qotmak millat tilini yo'qotmakka qiyoslanyapti. Darhaqiqat, tilning ahamiyati, uning mavjudligi har qanday yurt, millat taraqqiyotini belgilab berishi shubhasiz. Ayniqsa, bugungi globallashuv dunyo xalqlarining turmush tarzi umumiylik kasb etgan bir davrda yuqoridagi so'zlarning zalvori ikki hissa ortadi.

“Davlat tili haqida”gi Qonunning tarixiy o‘rni va ahamiyatini inobatga olgan holda davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan ishlarning uzviy davomi sifatida 2020-yil 10-aprelda Prezident tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonuni imzolandi. Unga muvofiq 21-oktyabr sanasi yurtimizda “O‘zbek tili bayrami kuni” deb belgilandi. Bu bilan davlat ramzlaridan biri sanalgan ma’naviy qadriyatimiz – ona tilimiz qonun himoyasida ekanligi yana bir bor o‘z isbotini topdi.

Ushbu bayramning mamlakatimizda keng nishonlanishi ona tilimizga e’tiborni yuksaltirish, uning mukammalligi va boyligini ko‘rsatib bera olish, nafaqat o‘zbek xalqi, balki boshqa millat vakillarini ham bebaho boyligimiz hisoblangan tilimiz va madaniyatimizni o‘rganishga ilhomlantirishda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Yangi O‘zbekiston gazetasi
- 2.Prezident qaror va farmonlari.
- 3.Internet tarmog’i